

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

**I. KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

RAXMATULLAEVA NARGIZA TULKUNOVNA

**TEMIR VA SURMA ELEMENTLARINI TANLOVCHAN EKSTRAKSION
AJRATISH VA ULARNI TO'G'RIDAN-TO'G'RI ORGANIK FAZADA
GETEROSIKLIK AZOBIRIKMALARI BILAN FOTOMETRIK ANIKLASH
USULLARINI YARATISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo
03.00.10 – Ekologiya**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Raxmatullaeva Nargiza Tulkunovna

Temir va surma elementlarini tanlovchan ekstraksion ajratish va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri organik fazada geterosiklik azobirikmalari bilan fotometrik aniqlash usullarini yaratish.....3

Рахматуллаева Наргиза Тулкуновна

Создание методов селективного экстракционного разделения элементов железа и сурьмы и фотометрического обнаружения их гетероциклическими азосоединениями непосредственно в органической фазе..... 21

Rakhmatullaeva Nargiza Tulkunovna

Development of methods for selective extraction separation of iron and antimony elements and photometric detection of their heterocyclic azo compounds directly in the organic phase.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

**I. KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

RAXMATULLAEVA NARGIZA TULKUNOVNA

**TEMIR VA SURMA ELEMENTLARINI TANLOVCHAN EKSTRAKSION
AJRATISH VA ULARNI TO'G'RIDAN-TO'G'RI ORGANIK FAZADA
GETEROSIKLIK AZOBIRIKMALARI BILAN FOTOMETRIK ANIQLASH
USULLARINI YARATISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

03.00.10 – Ekologiya

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.3.PhD/K.531 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya I.Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saxifasi www.ik-kimyo.nuuz.uz va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Giyasov Anvar Sharipovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Raximova Latofat Sobirjonovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turabov Nurmuxammad
kimyo fanlari nomzodi, professor

Muxamedov Qobiljon G'ofurovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

A.Sultonov nomidagi O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti

Dissertasiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «15» 02 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88, (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21. e-mail: chem0102@mail.ru).

Dissertasiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№29 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88, (+99871) 227-12-24, faks: (+99824) 246-53-21. e-mail: chem0102@mail.ru).

Dissertasiya avtoreferati «9» qablan 2023 yilda tarqatilgan.

(2023 yil «06» 02 dagi № 1 raqamli reestri bayonnomasi)



Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash raisi
k.f.d., professor

M.A.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
k.f.d., professor

N.X.Qutlimorodova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor v.b

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘nggi yillarda dunyoda aholi va ishlab chiqarish korxonalarini sonining o‘ssishi, atrof muhitga texnologiya ta’sirlarining kuchayishi natijasida yer yuzidagi ekologik holatning yomonlashuvini global muammoga aylanishiga olib keldi. Ushbu muammoning yechimi nafaqat xom ashyoni va chiqindilarni kompleks qayta ishlash, shuningdek atrof muhitga chiqayotgan zararli kimyoviy elementlar manbalarini hamda ularning migratsiyasi mexanizmini o‘z vaqtida aniqlash, ya’ni ekologik monitoring hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy analitik usullardan foydalangan holda zararli kimyoviy elementlarning samarali ekologik monitoring tizimini yaratish hozirgi vaqtdagi muhim amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biridir.

Bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan analitik kimyo usullaridan foydalangan holda atrof muhitdagi kimyoviy elementlar miqdorini tezlik va yuqori aniqlik bilan analiz qilish sohasidagi tadqiqotlarga e’tibor katta. So‘nggi vaqtlarda ekologik ob’yektlardagi kimyoviy elementlar miqdorini, jumladan metall ionlarini yuqori samara bilan aniqlashda ekstraksiya-fotometrik usulning ahamiyati o‘shirib bormoqda. Chunki, ushbu usul murakkab tarkibga ega eritmalardan kerakli element va ionlarni tanlab ajratib olish va spetsifik bo‘yoqlar yordamida fotometrik aniqlashga asoslangani uchun ham uning aniqlik darajasi yuqori bo‘lib, bu sohada yangi tanlovchan ekstragentlar va kompleks hosil qiluvchi bo‘yoqlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ham kimyoviy elementlarni ekstraksiya-fotometrik aniqlashning yangi usullarini yaratish bilan bir qatorda ma’lum usullarni takomillashtirish orqali ularning tanlovchanligi hamda, sezgirlikni oshirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, atrof-muhit muhofazasiga e’tiborning kuchayishi munosabati bilan metall ionlarini murakkab tarkibli eritmalardan ekstraksiya qilib ajratib olish hamda, ular miqdorini fotometrik aniqlash hamda uchun turli acocli bo‘yoqlar (AB), geterosiklik azobo‘yoqlar (GAB) va boshqa organik bo‘yoqlarni qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilib, yangi usullar ishlab chiqarilmoqda. Ularni sanoat korxonalarini, sanitariya-epidemiologik hamda ekologik laboratoriyalarida qo‘llashga joriy qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish» vazifalari belgilab berilgan¹. Bu borada, materiallarning sifatini hamda tozalik darajasini nazorat qilish, atrof-muhit ob’yektlarining monitoringini olib borish uchun ekstraksiya-fotometrik usulda tanlovchanligi yuqori bo‘lgan azobo‘yoqlar yordamida metall ionlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 2022 yil 28 yanvarda chiqarilgan Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2019 yil 3 apreldagi PQ-3983-sonli hamda, «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlarida shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot “ Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanish” bo‘yicha “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazaci” uctuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir (III) ionini elektrolitlardan rodanidli kompleks ko‘rinishda ekstraksion-fotometrik aniqlash bo‘yicha M.Ziegler, A.B.Shehata, J.A.Rani, B.K.Deshmukh, C.Xiangbin, M.L.Perez, M.J.Sanchez, A.Francisco, F.M.Garcia va boshqalar olimlar turli ekstragentlarni qo‘llab, muhim natijalar olishgan. Temir (III) ionini spektrofotometrik aniqlash bo‘yicha F.Wenhuan, W.Shaozu, M.L.Fernandez-de Cordova, A.Ruiz-Medina, A.Molina-Diaz kabi olimlarning chuqur izlanishlar olib borishgan bo‘lib, ular tomonidan yangi yuqori sezgir usullar taklif qilingan. Surma (V) ionini rangli ichki kompleks birikma hosil qilishga asoslangan usullarni tadqiq etish bo‘yicha D.B.Thorburn, D.Chimpalee, H.J.Bullick, I.Nemcova, P.Rychlovsky, M.Havelcova va boshqa olimlar izlanishlar olib borishgan. Organik bo‘yoqlar yordamida suyuq-suyuq, spektroskopik va atom-absorbsion usullarni ishlab chiqishda Yu.A.Zolotov, S.B.Savvim, S.I.Gusev, G.Ivanchev, V.M.Ivanov, P.N.Nesterenko, P.I.Lobanov, M.I.Bulatov, A.I.Busev, B.Z.Iofa, L.A.Gigoryan kabi olimlarning hissasi katta bo‘lib, ular tomonidan ishlab chiqilgan usullar sezgirligi va ishonchligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekictonda ham nodir va boshqa metallarni ajratish va aniqlash bo‘yicha mamlakatimizda analitik kimyo maktabini yaratgan olim akademik Sh.T.Tolipov hamda professorlar R.X.Djiyanbaeva, E.Abduraxmonov, K.Z.Raxmatullaev, B.G.Zokirov, B.D.Kabulov, I.P.Shecterova, A.M.Nacimov, A.M.Gevorgan, Z.A.Smanova, N.T.Turabov, A.Sh.Giyasov va boshqalar chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, sohaning rivojiga ularning qo‘shgan xissalari beqiyosdir.

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, metall ionlari, jumladan temir va surma ionlarini turli analitik usullar yordamida aniqlash ustida chuqur izlanishlar olib borilgan. Lekin, shunga qaramay ekologik ob‘yektlar tarkibidagi ionlar miqdorini aniqlash bo‘yicha samarali va sezgir usullar yaratish bo‘yicha xanuzgacha yetarli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishi ekologik ob‘yektlardagi temir va surma ionlarini organik fazada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratib olish hamda turli azobo‘yoqlar (PAN, PAAK, PAAF) yordamida ekstraksion-fotometrik aniqlash usullarini yaratishga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq № YOOT-Ftex-2018-208 "Temir va surma elementlarini tanlovchan ekstraksiyon ajratish va ularni to'g'ridan-to'g'ri organik fazada geterosiklik azobirikmalari bilan fotometrik aniqlash usullarini yaratish" (2020-2021 yillar) va № PQ-20170927346 "Oqova suvlarni tozalash uchun polikondensatsion turdagi yangi ion almashinuvchi polimer olish texnologiyasini yaratish" (2018-2020 yillar) mavzusidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temir va surma elementlarini tanlovchan ekstraksiyon ajratish va ularni to'g'ridan-to'g'ri organik fazada geterosiklik azobirikmalari bilan fotometrik aniqlash usullarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir (III) va surma (V) ionlarini inert organik erituvchilarga tanlovchan ekstraksiyalanishining optimal sharoitlarini va mexanizmlarini o'rganish;

temir (III) va surma (V) ionlarini azobo'yoqlar bilan organik fazada tanlovchan kompleks hosil qilish sharoitini o'rganish va ularning struktura tuzilishini IQ – spertroskopik usullar bilan tasdiqlash;

temir (III) va surma (V) ionlarini aniqlashda tashqi ionlarning ta'sirini o'rganish;

olingan natijalar asosida temir (III) va surma (V) ionlarining yangi, yuqori tanlovchan, sezgir va sodda bo'lgan tezkor ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usulini yaratish;

ekstraksiyon-fotometrik usulning ekologik ob'yektlardagi ahamiyatini o'rganish, hamda suv havzalari va sanoat oqova suvlaridagi temir (III) va surma (V) ionlari miqdorlariga ekologik jihatdan baho berish;

yaratilgan tanlovchan, sezgir, ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usullarini amaliyotga joriy qilish sohasini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti ishlab chiqarish korxonalarining texnologik eritmalari va oqova suvlari, tog' jinslari, ruda, konsentrat, qotishmalar va boshqa murakkab tarkibli bo'lgan namunalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti temir va surma ionlarini tanlovchan ekstraksiyon ajratish va organik fazada to'g'ridan-to'g'ri yondosh elementlardan ajratmasdan geterosiklik azobo'yoqlar yordamida aniqlash usullarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda optik (IQ-spektroskopik, ekstraksiyon-spektroskopik, molekulyar-absorbsion, atom-absorbsion), elektrokimyoviy, matematik-statik hisoblash usullari, usullardan foydalanilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta temir (III) va surma (V) ionlarini inert organik erituvchilarga tanlovchan ekstraksiyalanishning optimal sharoitlari topilgan va gidrat-solvat mexanizmi asosida tanlovchan ekstraksiyalanishi ko'rsatib berilgan;

temir (III) va surma (V) ionlarini organik fazada geterosiklik azobo'yoqlar bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari aniqlangan;

ilk bor temir (III) va surma (V) elementlari uchun yangi, tanlovchan, sezgir, tezkor va sodda bo'lgan ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usullari yaratilgan;

temir (III) va surma (V) ionlarining PAN, PAAF, PAAK azobo‘yoqlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning mikrostruktura tuzilishlari aniqlangan;

yangi yaratilgan ekstraksion-fotometrik usul ishlab chiqarish oqova suvlari tarkibidagi temir (III) va surma (V) ionlarini tezkorlik bilan aniqlash mumkinligi isbotlangan;

suv havzalari va sanoat oqova suvlari tarkibidagi temir (III) va surma (V) ionlari miqdorlariga ekologik baho berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir (III) va surma (V) ionlari uchun yaratilgan yangi, tanlovchan, tezkor va sodda bo‘lgan ekstraksion-fotometrik aniqlash usullari tarkibi murakkab bo‘lgan sanoat va geologik namunalarda yondosh elementlardan ajratmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlash imkoniyati ko‘rsatib berilgan;

mavjud bo‘lgan o‘ta sezgir, lekin tanlovchan bo‘lmagan organik reagentlar yordamida temir (III) va surma (V) ionlari uchun tanlovchan, o‘ta sezgir, tezkor va sodda bo‘lgan yangi ekstraksion-fotometrik aniqlash usullarini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. IQ-spektroskopiya, ekstraksion-spektroskopiya, fotometriya, elektrokimyoviy, spektrofotometriya usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar «kiritildi-topildi», «qo‘shimchalar qo‘shish» va standart namunalarga solishtirish usullari bilan matematik-statik hisoblashlar olib borilganligi, atrof-muhit ob‘yektlarining analizi klassik metodlari bilan solishtirilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati temir (III) va surma (V) ionlarining inert organik erituvchilarga tanlovchan ekstraksiyalanish optimal sharoitlari, organik fazada azobo‘yoqlar bilan kompleks hosil qilish sharoitlari topilganligi va kompleks birikmalarning asosiy spektrofotometrik tavsifi o‘rganilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zining yuqori tanlovchanligi, sezgirligi, ekspressligi va ishonchliligi bilan farq qiluvchi temir va surmaning yangi selektiv aniqlash usullari yaratilganligi va ularning amaliyotda ilmiy tadqiqot va sanoat ob‘yektlari analizida qo‘llanilishi ekoanalitik kimyoning muammolarini yechishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Azobo‘yoqlar yordamida temir va surma ionlarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan yangi ekstraksion-fotometrik aniqlash usullari “Toshkent shahar suv ta‘minoti” MCHJ ning “Boz-su” suv olish inshootidagi shahar suv tarmoqlari laboratoriyalarida azobo‘yoqlar yordamida aniqlash uchun amaliyotga joriy qilingan (O‘zsuvta‘minot AJ ning 2022 yil 13 apreldagi 2/8-919-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, korxonada laboratoriyasida temir (III) va surma (V) ionlarini ko‘rsatkichlarini yaratilgan usul yordamida tezkor aniqlash mumkinligi ko‘rsatib berilgan;

ishlab chiqilgan fotometrik usul Olmaliq KMK amaliyotiga joriy qilingan (Olmaliq KMK ning 2022 yil 25 oktyabrdagi AA-007115-son ma‘lumotnomasi).

Natijada, ruda, kek va konsentratlarda temir va surma ionlarini tindirish, ajratish va organik fazada azobo‘yoqlar yordamida fotometrik aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy maqolalarda, shulardan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarini chop etish. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertasiya 120 betni tashkil etadi².

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzabligi, maqsadi va vazifalarining zaruratlari, sinov ob‘ektlari va predmeti tavsiflangan. Dissertasiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiya bo‘yicha rivojlanishining ustivor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiliklar va izlanishlarning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari yoritib berilgan, sinov natijalarining amaliyotda tadbqiq qilinganligi, ishning chop etilganligi va dissertasiyaning tarkibi keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Temir va surma elementlarini fotometrik va ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usullari**” nomli **birinchi bobida**, temir va surma ionlarini ajratish va aniqlash bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari asosli va azo organik reagentlarning analitik tavsiflari, temir va surma ionlarining ekstraksiyon ajratish va aniqlashda ekstragent va azobo‘yoqlarning spektrofotometrik tavsiflari keltirilgan. Temir va surma ionlarini azobo‘yoqlar bilan kompleks hosil qilish sharoitlari asosan suvli fazalarda o‘rganilganligi aniqlangan.

Dissertasiya ishining “**Temir va surma ionlarini ekstraksiyanishi va ularning organik fazada kompleks hosil qilish bo‘yicha spektrofotometrik izlanish olib borish**” nomli **ikkinchi bobida** temir va surma ionlarini ekstraksiyon ajratish va aniqlash, hamda ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri organik fazada azobo‘yoqlari bilan kompleks hosil qilish bo‘yicha spektrofotometrik izlanishlar olib borilganligi keltirilgan. Temir va surma ionlarining organik fazada azobo‘yoqlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning tarkibi, zaryadi va mikrostrukturalarining tuzilishi, ularning toza eritmalarda aniqlash usullari, tashqi ionlarning ta’siri o‘rganilgan.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, agar temir va surma ionlarini kislotali muhit, galogenid ionlari (Cl-, Br-) va dimetilformamid (DMFA) ishtirokida organik erituvchilarga ekstraksiyalab, organik fazada yuqorida keltirilgan organik

² Muallif, temir (III) va surma (V) ionlarini azobo‘yoqlar bilan ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usulini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda bergan maslahatlari uchun dosent A.Sh.Giyasovga va professor L.S.Raximovalarga minnatdorchilik bildiradi.

reagentlarni qo‘shib, ma’lum sharoitda kompleks hosil qilsak, yaratilgan aniqlash usulining tanlovchanligi shuncha yuqori bo‘lishi ko‘rsatib berilgan.

Temir (III) ionini 5,6 g-ion/l va undan yuqori bo‘lgan vodorod-ioni, 6,6 g-ion/l va undan yuqori bo‘lgan xlorid-ioni (yoki bromid-ioni) va 30-45 % (hajm bo‘yicha) DMFA ishtirokida xloroformga amaliy jihatdan to‘liq ekstraksiyalanadi. Xloroformli (yoki benzolli) ekstraktga xloroform (yoki benzol) da eritilgan PAN, pH 4-8 bo‘lgan bufer aralashma qo‘shib, 30-40 sekund chayqatilsa, organik fazada temir (III) ionini azoreagent PAN bilan rangli kompleks birikma hosil qilgan.

Surma (V) ionini 0,3-3,0 M sulfat kislota, 0,6-5,0 M xlorid ionini va 18-22 % (hajm bo‘yicha) DMFA ishtirokida benzolga (yoki xloroformga) amaliy jihatdan to‘liq ekstraksiyalanadi. Benzolli (yoki xloroformli) ekstraktga benzolda (yoki xloroformda) eritilgan PAN va tarkibida sulfat kislota, yodid ionini, tiomochevina va DMFA bo‘lgan suvli eritma qo‘shib, 10-15 sekund chayqatilsa, organik fazada surma (III) ionini azoreagent PAN bilan rangli kompleks birikma hosil qiladi.

Temir va surma ionlarining xloroform va benzolga ekstraksiyalanishning optimal sharoitlari 1 va 2 – jadvalda keltirilgan.

1 -jadval

Temir (III) ionining xloroform va benzolga ekstraksiyalanishning optimal sharoitlari

Ekstragent	C_{H^+} , g-ion/l	Galogen ionlar (g)	S_g , g-ion/l	DMFA % hajm.	Ekstraksiyalash vaqti, sek.	$V_s:V_0$	Ekstraksiyalash darajasi, %
Xloroform	5,6 va undan yuqori	Cl^-	6,0 va yuqori	30-45	10-15	3:1	99,9
Xloroform	4 va yuqori	Br^-	4 va yuqori	25-40	10-15	3:1	99,9
Benzol	6,6 va yuqori	Cl^-	6,6 va yuqori	30-45	10-15	1:1	99,9
Benzol	4 va yuqori	Br^-	4 va yuqori	25-40	10-15	1:1	99,9
Xloroform	2 va yuqori	Rodanid	0,3 va yuqori	10-25	10-15	3:1	99,9
Benzol	1,5 va yuqori	Rodanid	0,2 va yuqori	5-30	10-15	1:1	99,9

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, surma (III) ionini PAN azobo‘yog‘i bilan organik fazada kompleks hosil qilish optimal sharoiti sulfat kislotasi 0,1 M dan 1 M oralig‘ida, yodid ionini, 0,04 M dan 0,3 M oralig‘ida, tiomochevina 0,02 M dan 0,3 M oralig‘ida va DMFA 2 % dan 30 % (hajm bo‘yicha) oralig‘ida ekanligi aniqlangan.

2-jadval

Surma (V) ionining xloroform va benzolga ekstraksiyalanishning optimal sharoitlari

Ekstragent	C_{H^+} , g-ion/l	Galogen ionlar (g)	C_g , g-ion/l	DMFA % hajm.	Ekstraksiyalash vaqti, sek.	$V_s:V_0$	Ekstraksiyalash darajasi, %
Benzol	0,6–6,0	Cl^-	0,6–5,0	30–45	10-15	3 : 1	99,9
Benzol	0,4–4,0	Br^-	0,5–4,0	25–40	20-30	2 : 1	98,5
Xloroform	0,32–0,8	Cl^-	0,1–2,5	30–45	10-15	10 : 1	99,9
Xloroform	0,30–0,7	Br^-	0,08–2,0	25–40	10-15	3 : 1	99,8


Temir va surma ionlarini geterosiklik azobo‘yoqlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning spektrofotometrik tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Temir va surma ionlarini geterosiklik azobo‘yoqlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning spektrofotometrik tavsifi

Kompleks birikmalar	Erituvchilar	Kompleksning maksimum nur yutilish to‘lqin uzunligi λ_{maks} , nm	Reagentning maksimum nur yutilish to‘lqin uzunligi, λ_{maks} , nm	$\epsilon \cdot 10^4$ molyar yutilish koeffitsienti (sezgirligi)	Fe, Sb:R (R-reagent)	Ber qonuniga bo‘ysunish shegarasi, 10 mkg/ml	Aniqlash shegarasi, minimal konsentratsiya $S_{min} \cdot 10^{-4}$ mol/l
<i>Fe</i> –PAN– <i>Sl</i>	$CHCl_3$	555	470	1,59	1 : 2	2 – 150	0,61
<i>Fe</i> – PAN – <i>Br</i>	$CHCl_3$	570	460	1,62	1 : 2	2 – 140	0,55
<i>Fe</i> – PAAK– <i>Sl</i>	$CHCl_3$	555	425	3,44	1 : 1	1 – 130	0,45
<i>Fe</i> – PAAK– <i>Br</i>	$CHCl_3$	545	425	3,16	1 : 1	1 – 130	0,31
<i>Fe</i> – PAAF– <i>Sl</i>	$CHCl_3$	555	445	4,82	1 : 2	1 – 120	0,30
<i>Fe</i> – PAAF– <i>Br</i>	$CHCl_3$	550	445	4,10	1 : 2	1 – 120	0,30
<i>Sb</i> – PAN – <i>Sl</i>	C_6H_6	590	480	1,60	1 : 1	2 – 120	0,50
<i>Sb</i> – PAN – <i>Br</i>	C_6H_6	580	470	1,62	1 : 1	2 – 120	0,50
<i>Sb</i> – PAAK– <i>Sl</i>	C_6H_6	560	435	3,05	1 : 1	1 – 120	0,30
<i>Sb</i> – PAAK– <i>Br</i>	C_6H_6	560	425	2,95	1 : 1	1 – 120	0,30
<i>Sb</i> – PAAF– <i>Sl</i>	C_6H_6	580	470	4,26	1 : 2	0 – 120	0,30
<i>Sb</i> – PAAF– <i>r</i>	S_6H_6	570	460	4,10	1 : 2	0 – 120	0,30

Temir va surma ionlarining azobo‘yoqlar bilan organik fazada hosil qilgan kompleks birikmalari va azobo‘yoqlarining elektron spektrlari 1, 2-rasmlarda ko‘rsatilgan bo‘lib, bundan shuni ko‘rish mumkinki, hamma kompleks hosil qilish reaksiyalar yuqori kontrastligini ko‘rsatadi.





1-rasm. Xloroformdagi temir (III) ionini azobo‘yoqlar bilan xloridli va bromidli komplekslarini elektron spektrlari. PAN bilan (1,2), PAAK bilan (3,4), PAAF bilan (5,6) va reagentlar PAN (7), PAAK (8), PAAF (9). $S_{Fe} = 3,23 \cdot 10^{-5} M$; $V_o = 10 ml$, $l = 1 sm$.



2-rasm. Benzoldagi azobo‘yoqlarning PAN (1), PAAK (3), PAAF (2) va surmaning PAN (4), PAAK (5), PAAF (6) bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining elektron spektrlari $S_{Sb} = 1,64 \cdot 10^{-5} M$; $V_o = 10 ml$, $l = 1 sm$.

Temir va surma ionlarining geterosiklik azobo‘yoqlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning ekstraktida qarorligi yuqori bo‘lib, bir necha sutkadan ortiqdir. Kompleks birikmalardagi komponentlarning mollar nisbatlari muvozanatni siljitish usuli, mollar nisbati va Asmusning to‘g‘ri chiziq usullari bilan topilgan. Temir va surma ionlarini azobo‘yoqlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni KU-2 markali H^+ formali kationitdan o‘tkazilganda musbat zaryadga ega ekanligi aniqlangan. Kompleks birikmalarning tarkibi, zaryadi, elektron spektrlari va IQ-spektrlarni o‘rganilgandan so‘ng, temir (III) va surma (V) ionlari azobirikmalarning oksi guruhi, azo guruhining azoti va geterohalqaning azotlari bilan bog‘ hosil qilgan, deb fikr yuritiladi. Temir va surma ionlarining ortiqcha zaryadlari galogenid ionlari bilan kompensiyalangan deb xulosa qilindi va kompleks birikmalarning mikrotuzilishi quyidagicha tasvirlandi.





Bu yerda, Me – Fe yoki Sb; G – Sl^- , Br^- , J^- .

Yaratilgan yangi aniqlash usullarning tanlovchanligini o‘rganish natijasida tashqi ionlarning katta miqdorlari aniqlashga halaqit etmaganligi aniqlandi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, temir va surma ionlari kislotali muhitdan galogenid-ionlari va DMFA ishtirokida inert organik erituvchilarga (xloroform va benzol) tanlovchan ekstraksiyalanar ekan.

Temir va surma ionlarni optimal sharoitda ekstraksiyalanishda mis, molibden va oltinlarning qisman ekstraksiyalanishi aniqlangan bo‘lib, ularning kichik miqdorlari halaqit etmagan. Temir (III) ionining rodanidli kompleksi ekstraktda 3 sutkadan ortiq barqaror, maksimum nur yutish to‘lqin uzunligi 490 nm. Taxminiy molyar yutish koeffisienti 490 nm da $7,2 \cdot 10^4$ ga teng. Ber qonuniga bo‘ysunish chegarasi 0,5-120 mkg temir 10 ml ekstraktda. Aniqlashning xatoligi 1-5 % oralig‘ida.

1) Temir (III) ionini rodanidli kompleksini toza eritmalarda aniqlash usuli.

Ajratgich voronkaga tarkibida 0,5-120 mkg temir (III) ionni bo‘lgan tekshirilayotgan eritmada 1 ml olib, ustiga 5 ml 5 M H_2SO_4 , 1 ml 5 M KSCN lardan solib, hajmini 8,5 ml gacha distillangan suv bilan suyultirilgan, yana ustiga 1,5 ml DMFA, 10 ml benzol qo‘shib, 3-5 sekund chayqatilgan. Suv fazani to‘kib tashlab, ekstraktni qog‘oz filtdan o‘tkazib, kyuvetaga quyilgan va KFK-2 markali fotokalorimetrda, 490 nm da solishtiruvchi eritmaga nisbatan optik zichlik o‘lchangan.

Temir (III) ionining ekstraksiyalanish optimal sharoitida qisman mis, kobalt, xrom, kumush, titan, selen, vanadiy, molibden va oltin (III) ionlari ekstraksiyalanadi, lekin ularning katta bo‘lmagan miqdorlari temirni aniqlashga halaqit etmaydi. Temir ionini PAN bilan tashqi ionlar ishtirokida aniqlash natijalari 4- jadvalda keltirilgan.

Temir ionini PAN bilan tashqi ionlar ishtirokida aniqlash natijalari (20 mkg temir olingan)

M	M/Fe	M	M/Fe	M	M/Fe
Ag (I)	5 000	Rh (III)	100	Mo (VI)	2 000 ¹
Zn (II)	10 000	Ru (III)	10 000	W (VI)	5 000 ²
Pb (II)	10 000	In (III)	5 000	Cr (VI)	1 000
Cu (II)	50	Ga (III)	20 000	Te (VI)	10 000
Cu (II)	5 000 ¹	Cr (III)	1 000	Mn (VII)	100
Mn (II)	20 000	La (III)	20 000	Os (VIII)	500
Cd (II)	10 000	Tl (III)	5 000 ¹	F ⁻	halaqit etmaydi
Hg (II)	10 000	Bi (III)	10 000	Sl ⁻	halaqit etmaydi
Ca (II)	20 000	Ti (IV)	1 000	Br ⁻	halaqit etmaydi
Ba (II)	20 000	Zr (IV)	10 000	I ⁻²	halaqit etmaydi
Mg (II)	20 000	Se (IV)	2 000	NO ₃ ⁻	1 000
Pd (II)	1 000	Th (IV)	5 000	PO ₄ ⁻³	halaqit etmaydi
Be (II)	10 000	Pt (IV)	5 000	CH ₃ COO ⁻	halaqit etmaydi
Co (II)	2 000 ¹	Nb (V)	10 000	EDTA	halaqit etmaydi
Ni (II)	10 000	As (V)	1 000	C ₂ O ₄ ⁻²	10 000
Al (III)	20 000	Sb (V)	5 000	Vino kislota	halaqit etmaydi
Au (III)	1 000	V (V)	1 000	Tiomoshevina	halaqit etmaydi
		U (VI)	5 000	Limon kislota	halaqit etmaydi

M-ion yoki birikma; M/Fye-tashqi ionlarning temirga nisbatan ruxsat etilgan massa nisbatlari; 1 – ekstrakti tarkibida 7,5 M HCl va 30 % (hajm bo'yicha) DMFA lardan tashkil topgan eritma bilan bir marta chayqatib yuvilgan so'ng; 2 – 200 ml vino kislotasi ishtirokida.

2) Temir (III) ionining xloridli kompleksini toza eritmalaridan xloroform bilan ekstraksiyalab PAN, PAAK va PAAF azobo 'yoqlar yordamida aniqlash usuli.

Sig'imi 50 ml ajratgich voronkaga, tarkibida 2-150 mkg temir (III) ion bo'lgan tekshirilayotgan eritmadan 1-2 ml olib, ustiga 6,5 ml HCl (d=1,19), 3 ml DMFA, 5 ml xloroform solib, 5-10 sekund chayqatilgan, so'ngra ekstrakt boshqa ajratgich voronkaga o'tkazilgan. Ekstrakt ustiga 5 ml 0,3 % li xloroformda eritilgan PAN (yoki PAAK, PAAF), 5 ml pH 5 ga teng bo'lgan, tarkibida 0,2 M NaCl bo'lgan asetat-ammiakli bufer aralashmadan solib, 10-15 sekund chayqatilgan. So'ngra rangli ekstrakt filtr qog'ozidan o'tkazib, kyuvetaga quyiladi va KFK-2 markali fotoelektrokolorimetrda 555 nm to'lqin uzunlikda, analogik usulda tayyorlangan solishtiruvchi eritmaga nisbatan optik zichlik o'lchangan.

3) Temir (III) ionining bromidli kompleksini toza eritmalardan ekstraksiyalab PAN, PAAK va PAAF azobo 'yoqlari yordamida aniqlash usuli.

50 ml sig'imli ajratgich voronkaga, tarkibida 2-150 mkg temir (III) ioni bo'lgan tekshirilayotgan eritmadan 1-2 ml olib, ustiga 5 ml konsentrlangan HBr, 3 ml DMFA, 5 ml xloroform solib, 10-15 sekund chayqatilgan, ekstrakt ustiga 5 ml 0,3 % li xloroformda eritilgan PAN (yoki PAAK, PAAF), 5 ml pH 5 ga teng bo'lgan, tarkibida 0,1 M NaBr bo'lgan asetat-ammiakli bufer aralashmadan solib, 10-15 sekund chayqatilgan. So'ngra rangli ekstrakt filtr qog'ozidan o'tkazib, kyuvetaga quyilgan va KFK-2 markali fotokolorimetrda 570 nm to'lqin uzunlikda, analogik usulda tayyorlangan solishtiruvchi eritmaga nisbatan optik zichlik o'lchangan.

4) Surma (V) ionini toza eritmalardan PAN bilan aniqlash usuli.

50 ml sig'imli ajratgich voronkaga tarkibida 5-150 mkg surma (V) ioni bo'lgan, konsentrlangan HCl eritilgan, tekshirilayotgan eritmadan 1 ml olib, ustiga 7 ml distillangan suv, 2 ml DMFA, 5 ml benzol qo'shib, 10-15 sekund chayqatilgan, Surma ionini PAN bilan tashqi ionlar ishtirokida aniqlash natijalari 5- jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Surma ionini PAN bilan tashqi ionlar ishtirokida aniqlash natijalari (20 mkg temir olingan)

M	M/Sb	M	M/Sb	M	M/Sb
Ag (I)	2 500	Pd (II)	1 000	As (V)	1 000
Ag (I)	5 000 ³	Fe (III)	40 000	Te (VI)	50 000
Cs (I)	10 000	Bi (III)	25 000	Mo (VI)	5 000
Pb (II)	1 000	Al (III)	50 000	W (VI)	500
Pb (II)	10 000	Cr (III)	25 000	Os (VIII)	1 000
Zn (II)	20 000	In (III)	25 000	U (VI)	1 000
Cu (II)	1 000	Ga (III)	10 000	Mn (VII)	2 500
Cu (II)	10 000 ²	Au (III)	1 000	V (V)	5 000
Cd (II)	50 000	Tl (III)	1 000	SI ⁻	100 000
Ba (II)	50 000	La (III)	1 000	Br ⁻	100 000
Mg (II)	50 000	Rh (III)	10 000	I ⁻	20
Be (II)	50 000	Sn (IV)	50 000	F ⁻	5 000
Ca (II)	50 000	Zr (IV)	50 000	C ₄ H ₆ O ₆	100 000
Hg (II)	50 000	Th (IV)	5 000	C ₃ H ₈ O ₇	40 000
Mn (II)	50 000	Se (IV)	1 000	PO ₄ ⁻³	10 000
Ni (II)	2 000	Ti (IV)	20 000	CS (NH ₂) ₂	1 000
Co (II)	2 000	Pt (IV)	5 000	EDTA	1 000

M-ion yoki birikma; M/Sb -tashqi ionlarning temirga nisbatan ruxsat etilgan massa nisbatlari; 1 –ekstraktning tarkibida 1 M HCl va 20 % (hajm bo'yicha) DMFA lardan tashkil topgan eritma bilan bir marta chayqatib yuvilgan so'ng; 2 – eritmani cho'kma bilan suv xammomida 2-3 daqiqa qizdirilgandan so'ng.

so'ngra suv fazani to'kib tashlab, ekstraktga 5 ml 0,03 % li benzolda eritilgan PAN va tarkibida 0,1 M NaJ, 0,1 M tiomochevina, 0,15 M DMFA, 0,2 M H₂SO₄ bo'lgan eritmada 10 ml qo'shib, 5-10 sekund chayqatilgan. So'ngra suv fazani to'kib tashlab, ekstrakt filtr qog'ozidan o'tkazilgan va kyuvetaga quyilgan. So'ngra KFK-2 markali fotokolorimetrda 580 nm to'lqin uzunlik, analogik usul bilan tayyorlangan solishtiruvchi eritmaga nisbatan optik zichlik o'lchangan.

5) Surma (V) ionini toza eritmalaridan PAAK (va PAAF) bilan aniqlash usuli.

Ajratgich voronkaga tarkibida 0,5-120 mkg surma (V) ioni bo'lgan, konsentrlangan HCl da eritilgan eritmada 1 ml olib, distillangan suv bilan 8 ml gacha suyultirilgan, ustiga 2 ml DMFA, 5 ml benzol qo'shib 10-15 sekund chayqatilgan. Suv fazani to'kib tashlab ekstraktga 5 ml 0,03 % li PAAK (PAAF) ning benzolli eritmaga nisbatan optik zichlikni o'lchangan. Surmaning miqdori gradurlangan grafik yordamida aniqlangan.

Surma (V) ionni ekstraksiyalash optimal sharoitida talliy (III) va oltin (III) ionlari qisman ekstraksiyalanadi, surma (III) ionini organik fazada PAN, PAAK va PAAF bilan kompleks hosil qilish optimal sharoitida ular kompleks hosil qilmaydilar va surmani aniqlashga halaqit etmagan.

Dissertasiyaning **“Surma (V) ionlarini tanlovchan ekstraksion ajratish va toza holda reekstraksion olish texnologiyasining prinsipial sxemasini ishlab chiqish, hamda surma va temir elementlari uchun yaratilgan yangi ekstraksion-fotometrik aniqlash usullarini tarkibi murakkab bo'lgan ishlab chiqarish namunalarda sinab ko'rish”** nomli **uchinchi bobida** temir va surma ionlari bo'yicha yaratilgan yangi aniqlash usullari bilan tarkibi murakkab bo'lgan namunalarda yondosh elementlardan ajratmasdan, to'g'ridan-to'g'ri aniqlab, olingan natijalarning tavsiflari, muhokamasi, xulosa va ilovalari keltirilgan.

Shuningdek, surma (V) ionlarini tanlovchan ekstraksion ajratish va toza holda reekstraksion olish texnologiyasining prinsipial sxemasini ishlab chiqilgan.

Ajratgich voronkaga qo'rg'oshin ishlab-chiqarish zavodining gidrosexida hosil bo'lgan eritmalaridan 1-2 ml olib, ustiga 6,0 ml konsentrlangan HCl ($d = 1,19$), 3 ml DMFA, 5 ml xloroform qo'shib, fazalarni 10-15 sekund chayqatilgan. So'ngra ekstraktning boshqa ajratgich voronkaga o'tkazib, ekstrakt ustiga 5 ml 0,3 % li xloroformda eritilgan PAN, 5 ml pH 5 ga teng bo'lgan, tarkibida 0,2 M NaCl dan tashkil topgan asetat-ammiakli bufer aralashmadan qo'shib, fazalarni 10-15 sekund chayqatilgan.

Ekstraktida hosil bo'lgan rangli kompleksni filtr qog'ozidan o'tkazib, kyuvetaga quyilgan va optik zichligini 555 nm da solishtiruvchi eritmaga (analogik usul bilan tayyorlangan) nisbatan o'lchangan (6-jadval).

6-jadval

Qo'rg'oshin ishlab-chiqarish zavodining gidrosexida hosil bo'lgan eritmalardan temirni aniqlash natijalari ($n = 4; p = 0,95$)

Temirning ishlab-chiqarish eritmalaridagi miqdori, mg/l	Topilgan miqdori, mg/l \bar{x}	S_r	$\Delta\bar{x}$	$\pm \frac{\Delta\bar{x}}{\bar{x}} \cdot 100$
14,00	14,30	0,015	$\pm 0,35$	$\pm 2,44$
45,70	45,12	0,016	$\pm 1,14$	$\pm 2,52$
100,00	102,24	0,014	$\pm 2,32$	$\pm 2,26$
150,00	147,60	0,014	$\pm 3,40$	$\pm 2,30$

Temirni chang, kek, dolomit, granit, ruda va konsentratlarda aniqlash uchun namunalardan 1 gr olib, 250 ml li konussimon kolbaga solinadi, ustiga 20 ml konsentrlangan HCl ($d=1,19$), dan quyib suv hammomida 10 minut qizdiriladi, ustiga 10 ml konsentrlangan HNO₃ ($d = 1,4$) dan qo'shib, nam tuz holiga kelguncha bug'latiladi, ustiga 50-60 ml distillangan suvdan qo'shib, loyqa yo'qolguncha qaynatiladi, so'ngra sovitib, filtr qog'oz yordamida 100 ml li o'lchov kolbaga o'tkaziladi va o'lchov belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi. Eritmaning alikvot (bir qismi) qismidan temirni toza eritmalardan aniqlash usuli tartibida aniqlangan (7-jadval).


7-jadval

Temirni PAN chang, kek va konsentratlardan aniqlash natijalari ($n = 4; p = 0,95$)

Namunaning nomi va raqami	Temirning pasport bo'yicha foiz miqdori, ($M \cdot 10^2$), %	$(\bar{x} \pm \Delta\bar{x}) \cdot 10^2$, %	$S_r \cdot 10^2$	$\pm \frac{\Delta\bar{x}}{\bar{x}} \cdot 100$
Chang:				
17978	24,00	$23,70 \pm 0,44$	1,16	$\pm 1,85$
19768	17,00	$17,50 \pm 0,49$	1,77	$\pm 2,80$
Kek:				
17984	4,30	$4,36 \pm 0,17$	2,43	$\pm 3,89$
17983	1,10	$1,30 \pm 0,05$	2,48	$\pm 3,84$
Konsentrat:				
2191 – 17	0,46	$0,59 \pm 0,02$	0,95	$\pm 3,39$
2192 – 17	0,27	$0,28 \pm 0,01$	1,90	$\pm 3,57$

Reekstragentlar ichida eng kuchlisi xrom (II) va vanadiy (II) ionlarini tuzli eritmalarining reekstraksiya darajasi 99,9% ni tashkil etgan. Reekstraksiyalanish vaqti 1 minut etarli bo'lgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, gidrometallurgiya sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarida tarkibida surma (V) ionlari bo'lgan kuchli mineral kislotali tuz eritmalaridan surma (V) ionlarining

mikrokonsentrasiyalarini konsentrlash va tanlovchan ekstraksiyon ajratish, hamda organik fazada toza holda reekstraksiyon olish texnologiyasining prinsipial sxemasi ishlab chiqildi va uning samaradorligi hisoblandi. Yaratilgan texnologiyaning prinsipial sxemasi 3-rasmda keltirilgan.



3-рasm. Surma (V) elementini toza holda ekstraksiyon ajratib olishning prinsipial texnologik sxemasi: 1-Boshlang'ich eritma uchun sig'im; 2- Aralashtirgich; 3,9-Filtrlash kaskadi; 4-Oksidlash kaskadi; 5-Ekstraksiyon kolonna; 6,10-Rafinat uchun sig'im; 7,13-Yuvish eritmasi uchun sig'im; 8-Yuvish kaskadi; 11-Reekstragent uchun sig'im; 12-Reekstraksiyon kaskad; 14-Neytrallash kaskadi; 15-Ion almashish kaskadi; 16-Adsorbsion kaskad.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, surma (V) ionining xloridli komplekslari kuchli kislotali muhitda DMFA ishtirokida 5-10 sekund davomida amaliy jihatdan to'liq (99,9%) ekstraksiyalanar ekan. Surma (V) ionlarining optimal ekstraksiyalanish sharoitida tashqi ionlarining ta'siri o'rganilganda, talliy (III) va oltin (III) ionlarining qisman ekstraksiyalanishi kuzatilgan va bu ionlar suv fazada talliy (III) ionlari tionalid bilan cho'kma hosil qilib, ushlab qolingan, oltin (III) ionlari esa metall holigacha natriy sulfid bilan qaytarilgan.

Surma (V) ionlari xloroformga toza holda ekstraksiyalanib, ajralib chiqqan. Suv – organik fazalarining nisbatlari 50:1 nisbatgacha o'zgarmaganligini tajribalar ko'rsatgan, shuningdek surma (V) ionining organik fazada metall holigacha qaytarib, toza holda ajratib olish uchun kuchli qaytaruvchilar (reagentlar) ta'siri o'rganilgan.

Shunday qilib, toza holdagi surmani ekstraksiyon usulda xloroform ishtirokida ajratib olish uchun sarf xarajatlar 22% boshqa barcha harajatlarni qo'shib hisoblanganda, 2 817 204,4 so'mni tashkil etdi. Yaratilgan texnologiyadan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik yiliga 59 159 200 so'mni tashkil etgan.

XULOSA

1. Ilk bor temir (III) va surma (V) ionlari uchun 1-(2-piridilazo)-2-naftol (PAN), 5-(2-piridilazo)-2-monoetilparaaminokrezol (PAAK), 2-(2-piridilazo)-5-dietilmetaaminofenol (PAAF) azobo'yoqlar yordamida mavjud bo'lgan usullardan o'zining tanlovchanligi, soddaligi va tezkorligi bilan farq qiluvchi yangi ekstraksiyon-fotometrik aniqlash usullari yaratilgan.

2. Temir (III) va surma (V) ionlarining galogenidli kompleks ionlarining inert organik erituvchilarga tanlovchan ekstraksiyalanish sharoitlari aniqlanib, temir (III) ionlarini kuchli kislotali muhitdan galogenid ioni (rodanid ionlari) va DMFA ishtirokida xloroform va benzolga tanlovchan ekstraksiyalanish sharoitlari topilgan. Surma (V) ionlarini kuchli kislotali muhitdan xlorid ionlari va DMFA ishtirokida benzol va xloroformga tanlovchan ekstraksiyalanish sharoitlari aniqlangan. Surma (V) ionlari 0,3-3,0 M H₂SO₄ bo'yicha 0,6-6,0 M NaCl bo'yicha va 18-20 % (hajmda) DMFA bo'yicha 5-10 sekund davomida fazalar chayqatilganda tanlovchan ekstraksiyalanishi ko'rsatib berilgan.

3. Temir (III) va surma (V) ionlarini galogenidli komplekslarining organik fazada tarkibi aniqlangan va ularning benzol va xloroformga kuchli kislotali muhitdan galogenid ioni va DMFA ishtirokida gidrat solvat mexanizmi asosida ekstraksiyalanishi isbotlangan.

4. Temir (III) va surma (V) ionlarining organik fazada geterosiklik azobo'yoqlar bilan kompleks hosil qilish sharoitlari topilib, ularning PAN, PAAK va PAAF azobo'yoqlar bilan organik fazada pH 2-6 oraliqda mustahkam rangli kompleks hosil bo'lishi ko'rsatib berilgan.

5. Temir (III) va surma (V) ionlarining azobo'yoqlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning spektrofotometrik tavsiflari, kompleks birikmalarning zaryadlari va mikrostrukturalarni identifikatsiya qilish uchun IQ-spektrlari olingan.

6. Ilk marta temir (III) va surma (V) ionlari uchun yaratilgan yangi ekstraksion-fotometrik aniqlash usullari ishlab-chiqarish eritmalari, konsentrat, chang va keklarda shuningdek, temir tarkibli ruda, tog' jinslari, rux-kadmiy va qo'rg'oshin namunalari bo'yicha tayyorlangan model eritmalarida tashqi elementlardan ajratmasdan sinab ko'rilgan.

Natijada yaratilgan usullar korxonalar laboratoriyalarida temir va surma ionlarini tindirish, ajratish va organik fazada azobo'yoqlar qo'shish tartibida fotometrik aniqlash uchun tavsiya qilingan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.K.01.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНИ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ И.КАРИМОВА**

РАХМАТУЛЛАЕВА НАРГИЗА ТУЛКУНОВНА

**РАЗРАБОТКА СПОСОБОВ ИЗБИРАТЕЛЬНОГО ЭКСТРАКЦИОННОГО
ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ ЖЕЛЕЗА И СУРЬМЫ И
ФОТОМЕТРИЧЕСКОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИХ С
ГЕТЕРОЦИКЛИЧЕСКИМИ АЗОСОЕДИНЕНИЯМИ
НЕПОСРЕДСТВЕННО В ОРГАНИЧЕСКОЙ ФАЗЕ**

02.00.02 – Аналитическая химия

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2022.3.PhD/К.531

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени И.Каримова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (ik-kimyo.nuu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Гиясов Анвар Шарипович
кандидат химических наук, доцент

Рахимова Латофат Собиржановна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Турабов Нурмухаммад
кандидат химических наук, профессор

Мухамедов Қобилжон Ғофурович
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:

Узбекский научно-исследовательский химико-фармацевтический институт имени А.Султанова

Защита диссертации состоится « 25 » 02 2023 г. в « 11⁰⁰ » часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019. К/Т.01.03 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4, Тел.: (99871) 246-07-88, (+99871) 227-12-24, факс: (99871) 227-12-24, e-mail: chem0102@mail.ru).

Диссертация можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана за № 29 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел.: (99871) 246-67-71).

Автореферат диссертации разослан « 9 » февраль 2023 г.

(протокол рассылки № 1 от « 06 » 02 2023 г.).


З.А.Сманова
Председатель Ученого совета по
присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

М.А.Махкамов
Ученый секретарь Ученого совета по
присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

Н.Х.Кутлимородова
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н.,
и.о.профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Рост численности населения и производственных предприятий в мире в последние годы в результате усиления техногенного воздействия на окружающую среду привел к тому, что ухудшение экологической обстановки на Земле стало глобальной проблемой. Решением этой проблемы является не только комплексная переработка сырья и отходов, но и своевременное выявление источников вредных химических элементов, выбрасываемых в окружающую среду, а также механизма их миграции, то есть экологический мониторинг. Поэтому создание эффективной системы экологического мониторинга вредных химических элементов с использованием современных аналитических методов является одной из важнейших практических задач в настоящее время.

Сегодня внимание ученых всего мира уделяется исследованиям в области быстрого и высокоточного анализа количества химических элементов в окружающей среде с использованием методов аналитической химии. В последнее время возрастает значение экстракционно-фотометрического метода в высокоэффективном определении количества химических элементов в объектах окружающей среды, в том числе ионов металлов. Поскольку этот метод основан на селективном извлечении необходимых элементов и ионов из растворов со сложным составом и фотометрическом обнаружении с использованием специальных красителей, его точность также высока, и в этой области важно обнаруживать новые селективные экстрагенты и комплексообразующие красители.

В нашей республике также ведется научно-исследовательская работа по повышению селективности и чувствительности химических элементов путем создания новых методов экстракционно-фотометрического обнаружения, а также совершенствования определенных методов. В частности, в связи с повышенным вниманием к охране окружающей среды ведутся исследования и разрабатываются новые методики экстракционного извлечения ионов металлов из растворов сложного состава и фотометрического определения их количества, а также применения различных основных красителей (АК), гетероциклических азокрасителей (ГАК) и других органических красителей. Ведутся работы по внедрению в эпидемиологических и экологических лабораториях. В новой стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы определены задачи «совершенствования механизмов оценки уровня загрязнения окружающей среды, мониторинга окружающей среды, прогнозирования уровня ее загрязнения, обеспечения непрерывного информационного обеспечения государственного экологического контроля, осуществления мониторинга состояния источников загрязнения и воздействия на окружающую среду»³. В связи с этим важное значение приобретает обнаружение ионов металлов экстракционно-фотометрическим методом с использованием азокрасителей

³ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы».

высокой селективности для контроля качества материалов и уровня чистоты, мониторинга объектов окружающей среды.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «о стратегии развития нового Узбекистана», от 30 октября 2019 года № УП - 5863 «об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года», от 25 октября 2018 года № ПП-3983 «о мерах по ускоренному развитию химической промышленности в Республике Узбекистан», от 3 апреля 2019 года № ПП-3983 «о мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности», а также в целях реализации задач, определенных иными нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности, диссертация исследования в определенной степени служат.

Соответствие исследований с приоритетными направлениями развития науки и технологий в Республике Узбекистан. Данное исследование было выполнено в соответствии с приоритетными направлениями «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды» программы «Развитие науки и техники в Республике».

Степень изученности проблемы.

